

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYa INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVChI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYa INSTITUTI

ABDULLAYEV ABRORJON ABDUXAMID O'G'LI

**URUG'LIK CHIGIT TAYYORLASH TEXNOLOGIYASIDA CHIGIT
SARALASH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN TAYYORLANGAN
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abdullayev Abrorjon Abduxamid o'g'li

Urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasida chigit saralash qurilmasini takomillashtirish.....3

Абдуллаев Абдоржон Абдухамид угли

Усовершенствование сеясортировочного устройства в технологии подготовки
посевных семян.....27

Abdullayev Abrorjon Abdukhamid ugli

Improvement of the seed sorting device in the technology of seed preparation53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works56

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYa INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVChI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYa INSTITUTI

ABDULLAYEV ABRORJON ABDUXAMID O'G'LI

**URUG'LIK CHIGIT TAYYORLASH TEXNOLOGIYASIDA CHIGIT
SARALASH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLIH UCHUN TAYYORLANGAN
DISSERTATSIYA**

Namangan – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3336 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muxandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifaciga www.nammti.uz va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Obidov Avazbek Azamatovich
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy
opponentlar:**

Qayumov Abdul-Malik Hamidovich
texnika fanlari doktori, professor

Narmatov Elmurod Avazovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 y. «10» fevral soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahar, Kosonsoy, 7-uy. tel: (+99869) 225-10-07, faks: 228-76-75; e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik- texnologiya instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiyasi ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (266-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «30» yanvar kuni tarqatildi.
(2024 yil «30» yanvardagi. № 4 raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

B.T.Aliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

N.M.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi paxta xom ashyosi tolasi bo'lib, har yili jahon miqyosida 23-24 mln. tonna atrofida paxta tolasi ishlab chiqariladi. Hozirda toboro ortib borayotgan aholi soni hisobiga paxta tolasi iste'moli va unga bo'lgan talabning istiqbolda ortib borishi kutilmoqda¹ va toladan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda paxta yetishtirish, uning iste'mol xususiyatlarini yaxshilash, paxtani tayyorlash va dastlabki ishlash jarayonlarida yangicha texnologiyalardan foydalanishga muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada, jumladan paxtani terish, tashish, quritish, iflosliklardan tozalash jarayonlarida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiruvchi avtomatlashgan, resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon ishlab chiqarishida paxtaning yuqori iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan navlarini yaratish, sifatli urug' tayyorlash, ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir etadigan me'yoriy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, korxonalaridagi mavjud texnologiyalarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada urug'lik chigit sifat ko'rsatkichlarini tubdan o'zgartirish, yuqori unuvchanlik, kimyoviy preparatlar bilan bir me'yorda va tekis ishlov berilganlik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan urug'lik chigit ishlab chiqarish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Urug'lik chigitning sifat ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini uni saralash va sifatli dorilash texnologik tizimlari ta'minlaydi. Saralash sifatini oshirish uchun, uskunalarning takomillashtirilishidan tashqari saralash agregatlariga chigitni bir me'yorda uzatish katta ahamiyatga ega. Urug'lik chigit tayyorlash tseklariga joriy etilgan saralash qurilmalarining ish unumdorligini oshirish bilan tayyorlanayotgan urug'lik chigit sifat ko'rsatkichlarini oshirishga erishish uchun, agregatlar ishchi organlarini takomillashtirish va yangi uskunalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda paxta xom ashyosi chigitlarini saralash hamda yot aralashmalardan tozalash, texnologik jarayonlarga turli innovatsion ishlanmalarni joriy qilish, kelgusi paxta hosili uchun urug'lik chigitlarni sifatli saralash texnologiyasi va tizimini tadbiq qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida, jumladan, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish surhatlarini ta'minlash bo'yicha: "To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga ko'paytirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish"² bo'yicha vazifalar

¹ International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, email secretariat@icac.org. September 1, 2018

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarilayotgan urug'lik chigitlarning tabiiy xususiyatlarini saqlash hamda resurstejamkor mahalliy texnologiyalardan foydalanib chigitlarni sifat saralash zamonaviy ishlab chiqarishning muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni, «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408 son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli “Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyada tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta xom ashyosining urug'lik chigitlariga ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish hamda chigitlarni tozalash va fraksiyaga samarali ajratish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli horijiy olimlar katta xissa qo'shganlar, jumladan Sh.Barampuram, G.Allen, S.Krasnyanski, V.S.Mor, Jyoti Jhawar va boshqalar.

Paxta chigitini saralash va tozalash texnologiyasini takomillashtirishga O'zbekiston olimlarining ham ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: Bushuev M.N., Shleyxer A.I, Qosimov D.K., Rakipov V.G., To'xtaboev S., To'ychiev V.X., Axmedxodjaev X.T., Djamalov R.K., Tursunov A.Yu., Djuraev R.X. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida mazkur texnologiyalar uchun yangi mashinalar nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqildi va bu borada salmoqli natijalarga erishildi.

Lekin, hozirga qadar chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan urug'lik chigitlarni saralash va tozalash texnologiya va uskunalari, ishchi qismlari samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari orqali bir nechta ilmiy-texnik muammolar o'z yechimini to'liq topmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Paxta tozalash korxonasida jinlangan va urug'lik chigitlarni samarali saralash va tozalash texnologiyasini takomillashtirish” (2022-2023) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korxonada urug'lik chigit tayyorlash texnologik jarayoni uchun chigitlarni samarali saralash hamda fraksiyaga ajratish imkoniyatiga ega qurilmani yaratish va korxonaga joriy qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oldin olib borilgan zamonaviy tadqiqot ishlari natijalarini tanqidiy tahlil qilish orqali dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini belgilash;

urug'lik chigitlarni saralovchi qurilmaning asosiy ishchi organlarini samarali ishlashini hamda aerodinamik masalalarni o'rganish uchun nazariy tadqiqotlar o'tkazish;

qurilmaning tajriba konstruktsiyasini ishchi sxemasini ishlab chiqish hamda matematik rejalashtirish usuli yordamida konstruktsiya texnologik xossalariga ta'sir qiluvchi omillar qiymatlarini aniqlash;

takomillashtirilgan urug'lik chigit saralash qurilmasining eksperimental konstruktsiyasini yaratish va ishlab chiqarish sharoitida tajribalar o'tkazish;

sinovlar natijasida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash va qurilmani ishlab chiqarishga joriy qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida takomillashtirilgan urug'lik chigit saralash qurilmasi hamda chigitlarga ishlov berish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini takomillashtirilgan urug'lik chigit saralash qurilmasi konstruktsiyasi va texnologik ko'rsatkichlari, ishlash jarayoni rejimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy va amaliy mexanika, eksperimental tadqiqotlar, matematik statistika, zamonaviy o'lchash usul va vositalaridan foydalanib eksperimentlarni rejalashtirish, o'tkazish va optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

korxonada urug'lik chigitlar tayyorlash va ularni saralash jarayoni ilmiy-texnik muammolarini tahlil qilish orqali fraktsiyaga ajratuvchi urug'lik chigit saralash qurilmasi ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan urug'lik chigit saralash qurilmasining ajratuvchi kameralarida chigitlarning harakati hamda sodir bo'ladigan aerodinamik holatning nazariy asoslari differensial formulalar orqali yaratilgan;

matematik modellashtirish usuli yordamida urug'lik chigit saralash qurilmasi ishlashiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar maqbul qiymatlari: kamera kengligi 600 mm, chigitlarni tashuvchi havo tezligi 18 m/sek hamda chigit burgichining qiyalik burchagi 30^0 aniqlangan;

urug'lik chigitlarni saralash va fraktsiyaga ajratish qurilmasining asosiy konstruktiv parametrlari bo'lgan urug'lik va texnik chigitlar uchun ajratish kameralari hajmi 600x250 mm, chigit to'sqich qiyaligi 30^0 holatida 4000 kg/soat unumdorlikda samaradorlik 98 % bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

urug'lik chigitlarni saralash qurilmasining takomillashtirilgan konstruktsiyasi ishlab chiqilgan va uni joriy qilish orqali korxonada ish unumdorligi hamda saralangan urug'lik chigit sifat ko'rsatkichlari oshirilgan;

qurilmada texnik chigitlar uchun qo'shimcha saralash kamerasi o'rnatilib, urug'lik chigitlarga texnik chigitlarning aralashib ketishi oldi olingan hamda yuqori ish unumdorlikda saralash samaradorligi 97 % ga yetkazilgan;

ishlab chiqilgan urug'lik chigitlarni saralash qurilmasida nazariy hamda esk'erimental tadqiqotlar o'tkazilib, uning konstruktiv va texnologik kattaliklari aniqlangan va bu orqali uning samarali ishlashi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari mutanosibligi, aniqlangan parametrlarga ega ishchi qismlari bo'lgan takomillashtirilgan qurilmada ishlab chiqarish tajribalari natijalari hozirgacha ishlatib kelingan yoki yaratilgan qurilmalar natijalari bilan solishtirilib asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati urug'lik va texnik chigitlar uchun mo'ljallangan kameralarda havo tezligiga bog'liq holda chigitlarning harakatlanishi hamda saralanish qonuniyati, saralash qurilmasini ishonchliligi va ta'sir qiluvchi omillarni maqbul qiymatlarini aniqlash modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha takomillashtirilgan saralash qurilmasini ishlatish orqali korxonada saralash hajmini hamda urug'lik chigitlar sifatini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Takomillashtirilgan urug'lik chigitlarni saralash qurilmasini joriy qilish orqali olingan natijalar asosida:

ikki kamerali urug'lik chigitlarni saralash qurilmasi Jizzax viloyati "Jizzax Kenteks" MChJ ga joriy etilgan ("O'zbekiston Paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2023 yil 16 oktabrdagi 03/22-798-son ma'lumotnomasi). Natijada chigitlarni fraktsiyalarga saralash samarasi 97-98 % ni tashkil qilib, ish unumdorligi 4000 kg/soatga ortirildi, saralash sifatining oshishidan chigit unuvchanligi 3 % ga ortishiga erishildi, natijada chigit sarfi gektariga 5,8 kg ga kamaydi. 1 gektardan tejalgan urug'lik chigitning qiymati 58,0 ming so'mni tashkil qildi;

takomillashtirilgan urug'lik chigitlarni saralash qurilmasi texnologik parametrlari Jizzax viloyati "Jizzax Kenteks" MChJ ga joriy etilgan ("O'zbekiston Paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2023 yil 16 oktabrdagi 03/22-798-son ma'lumotnomasi). Natijada urug'lik chigitni saralash qurilmasiga texnik chigitlar uchun qo'shimcha kamera o'rnatish orqali texnik chigitlarning urug'likka qo'shilib ketish holati 2-3 % gacha kamaytirildi hamda urug'lik chigitlar sifati mavjudga nisbatan 0,13 % ga yaxshilandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 6 ta turli ilmiy konferentsiyalarda, shu jumladan 4 ta xalqaro, 2 ta Respublika konferentsiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 3 ta maqola esa xorijiy jurnallarda nashr etilgan, O'zbekiston Respublikasi intellektual mult agentligi tomonidan FAP 02241 raqamli patent berilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari keltirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalari amaliyoti, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi "**Urug'lik paxta chigitini saralash texnika va texnologiyasining bugungi kundagi holati**" bo'limi adabiy manbalarni analitik tahliliga va urug'lik chigitlarga ishlov berish jarayoni texnika va texnologiyalarining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda korxonada chigitlarni saralashda saralash sifatini oshirish holatlari, chigitlar tarkibidan turli fraksiyalarni ajratish uchun olib borilgan tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.

Qishloq xo'jaligida paxta vegetatsiyasining o'ziga xos tarafi, hatto bir turdagi urug'lar ham chanoqlarda joylashuvlariga qarab rivojlanishida bir-biridan farqlanadi. Bundan tashqari ularning chanoqlardagi joylashuvi ham o'ziga xos ta'sirga ega. Bizga ma'lumki, urug'lar kelgusi hosilning sifat va miqdori zaminidir. SHunday ekan, paxta xom ashyosi urug'larini qayta ishlash jarayonida ekishga mo'ljallangan materialni yaratilishi obhektiv mavjud qonunlarga bo'ysunadi, ya'ni urug' fiziologik yetilish darajasi, zichligi va vazni bo'yicha bir xil emasligi tufayli paxtaning o'sishi va kelgusi hosildorlik darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Urug'lik chigitlarning ana shu xususiyatlari unib chiqadigan urug'larning umumiy energiya ko'rsatkichiga va unib chiqish tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada paxtani pishish muddati kechikib qoladi yoki notekis rivojlanib hosildorlikka salbiy ta'sir etadi. Paxta chigitining fizik xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga uning geometrik o'lchamlari, vazni, tukdorlik darajasi, mustahkamligi, po'stlog'ining holati, ishqalanish koeffitsienti va boshqa xususiyatlari kiradi.

Paxta chigitlarini ekishda ularga qo'yiladigan talablarni 3 xil guruhga ajratish mumkin: urug'ning bevosita o'ziga tegishli sifat ko'rsatkichlari (hosildorlik, olingan mahsulot sifati, vegetatsiya davri), mexanik yo'l bilan ekishga qo'yiladigan talablar (tuklilik darajasi, ifloslanish), kelgusida ekishga mo'ljallangan urug'larni saqlashga bo'lgan talab (namlik, ombor zararkunandalari bilan zararlanganligi).

Saralash jarayonlari bo'yicha ilmiy izlanishlar XX asr boshlaridan boshlangan bo'lib, chigit saralashning muhurligini asoslash olimlar tomonidan birinchi marotaba o'rganilgan. Olib borilgan tajribalar asosida, chigitni fraksiyalarga ajratish, paxta xosildorligining ko'payishiga sabab bo'ladi degan xulosaga kelingan. Chigit ko'rinishi va o'lchamlari bo'yicha har xilligi uchun,

urug'likni tanlashda ularning eng ko'p xosildorlik belgilarini aniqlash kerak degan xulosa qilingan.

Tadqiqotlarda urug'lik chigitlarning formasi, o'lchamlari, solishtirma massasi va yakka massalarini o'rganish asosida, chigitni solishtirma massasi bo'yicha saralash olib borilishi kerak degan xulosaga keldi. Solishtirma massasi bo'yicha saralangan chigitlardan olingan paxta xosildorligiga 1,0-4,9 ts/ga, ya'ni 16% ga qo'shilishi ko'rindi. Saralash bo'yicha o'tkazilgan tajribalaridan katta va o'rta fraktsiyali, ya'ni chigitning ehni 4,8-5,6 mm va 4,4 mm.dan katta, qalinligi esa 4,2-4,4 mm va 4,4 mm.dan katta bo'ladi deb tavsiya berilgan. Chigitlarning yuqorida keltirilgan o'lchamli fraktsiyalaridan olingan xosil, nazorat chigitidan olingan xosilga nisbatan 8,5 % ga ko'paygan. Chigitlarning solishtirma massasi bo'yicha saralashning uch yillik tajribalaridan, nozorat chigitiga nisbatan xosildorlikka 15 %, tozalanmagan chigitga nisbatan esa 36 % gacha qo'shilganligi ko'rildi. Bundan tashqari ko'chatlarning o'sish fazalarida ham o'zgarishlar borligi aniqlandi.

Ma'lumki ajratish jarayoni uch usulga bo'linadi: Havo oqimi yordamida ajratish; Mexanik moslamalarda ajratish; Material yuzasining turli xossalari bo'yicha ajratish.

Chigitli aralashmani uning aerodinamik xususiyatlari bo'yicha ajratish havo oqimi yordamida amalga oshiriladi. Bunda havo oqimi yetarlicha bir tekisda hamda o'zgarmas bo'lishi shart. Chigitli aralashma esa oqimga bir tekisda va uzluksiz ingichka qatlamda qo'shilishi kerak bo'ladi. Amaliyotda vertikal va qiya havo oqimi yordamida ajratuvchi qurilmalar qo'llaniladi. Yengilroq yoki uchuvchanlik xususiyati yuqoriroq fraktsiyalar havo oqimiga qo'shib (vertikal havo oqimida) yuqoriga yo'naladi. Kamroq uchuvchanlikka ega bo'lgan fraktsiyalarga qaraganda kattaroq masofaga uloqtiriladi. Xuddi shu usul so'ruvchi havo oqimida ham qo'llaniladi.

Aerodinamik xossalari bo'yicha fraktsiyalarga ajratish tozalangan maydonning ochiq yuzasiga katta boshlang'ich tezlikda maxsus moslama yordamida uloqtirilib, amalga oshiriladi. Bunda kichik aerodinamik xossaga ega bo'lgan va og'irroq fraktsiyalar kichik massali yuqori aerodinamik fraktsiyalarga nisbatan uzoq masofaga uloqtiriladi. Chigitlarni havo oqimi yordamida ajratish tamoyilida ishlovchi urug' ajratish uchun O'zbekiston Res'ublikasi paxtasanoat ITIlarida loyihalangan va ishlab chiqarilgan SXL, USM markali chigit saralagichlar qo'llaniladi.

Erkin holda qulayotgan chigitlar kesuvchi gorizontol yoki og'ma havo oqimi bilan saralanganda aerodinamik xossalari bir-biriga yaqin bo'lgan fraktsiyalar to'liq ajralmaydi. Masalan, tola bilan o'ralgan chigitlar sirtida tola qo'lamasi bo'lmagan chigitlardan umuman farq qilmaydi. Shuning uchun havo ventilyatori bilan jihozlangan chigitlarni tozalash va saralash mashinalarining umumiy kamchiligi turbulentslik va pulsatsiyalanish, hamda ishchi kameraning kengligi va uzunligi bo'yicha havo oqimining doimiy emasligidir. Bundan tashqari havoning gorizontol yoki og'ma oqimini hosil qiluvchi purkovchi ventilyatorli mashinalar havoni o'ta kuchli changlashtirganligi tufayli yopiq binolarda ishlatib bo'lmaydi.

CHSA saralash agregatini havo so'rish tezligini aniq rostlanishi saralash ishonchligini oshiradi. Ish unumdorligini oshirish uchun chigit berilishini

ko'paytirilganda tiqilib qolish, bu xolatdan xalos bo'lish uchun havo tezligini oshirilganda urug'lik chigitning texnikka o'tib ketish kabi xolatlar kuzatildi. Uning balandligi 9200 mm ni tashkil etganligi, urug'lik chigit tayyorlash tsexlari binolariga sig'masligi va tsexning tomini buzib fonarik ishlash kerakligi, yasalishda metall sarfining ko'pligi va yuqori ish unumdorlikda chigit tiqilib qolish oqibatlari aniqlandi.

Paxta tozalash korxonalari chigit tsexlarida ishlatib kelinadigan yana bir agregat bu - USM-A pnevmomexanik tozalash va saralash agregati hisoblanadi. pnevmomexanik chigit tozalovchi qurilmasining ishlash tamoyili, markazdan qochma ventilyatorlar hosil qilgan havo oqimi bilan so'rish orqali chigitlarni chiqindilar va boshqa fraktsiyalarga ajratish ular tezligining farqlanishiga asoslangan. Paxta chigitlarini birlamchi holatlariga bog'liq holda bu qurilma orqali ajratilgan chiqindilar massasi chigitlarni birlamchi massasini 0,1-0,2% ni tashkil etadi. Chiqindilardagi chigitlarni (butun, singan) va tolali materialning miqdori, mos ravishda, 18,5-19,6 va 11,8-55,4 % ni tashkil etadi. pnevmomexanik chigit tozalagichning asosiy kamchiligi – mayda chiqindilar bo'yicha tozalash samaradorligini pastligi – bor yo'g'i 20-25%, hamda nisbatan katta quvvat (12,85 kVt) talab qilishi va qurilmani aerodinamik ish tartibini muntazam sozlab turilishi zarurligi. Bunday kamchiliklar paxta tozalash sanoati talablarini umuman qondirmaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, bugungi kundagi urug'likka mo'ljallangan paxta chigitini fraktsiyalarga ajratish texnika va texnologiyasi u yoki bu kamchiliklarga ega bo'lib, samarali ishlaydigan mashinalarning mavjud emasligi mukammal tadqiqotlar o'tkazishni talab qilmoqda. Bundan tashqari ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishini maxalliy mashina va agregatlarni takomillashtirishga qaratish orqali umumiy tannarxni pasaytirishni ham inobatga olish lozim bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Chigitlarni saralash qurilmasining samarali ishlashini nazariy asoslash”** bo'limida asosan takomillashtirilgan qurilmani tanlashda o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Zamonaviylashtirilgan urug'lik chigit tayyorlash tsexlariga chigitni tozalash va saralash uchun pnevmomexanik saralash agregatlari joriy etilgan. Urug'lik chigitlarni saralash qurilmalari chigitlarni gorizontal yoki vertikal havo yordamida tozalaydi va saralaydi. Bunda havo tezligini rostdashda juda katta aniqlik kerak bo'ladi. Ko'plab ilmiy izlanishlar natijasida saralash qurilmalarining takomillashtirilgan konstruktsiyalari ishlab chiqilgan. Bu qurilmalarning ish unumdorligi 3 t/soatga va saralangan chigitlarning 1000 donasi massasini, dastlabki chigitning 1000 donasini massasiga nisbatan 2-4 grammgacha ortishiga erishildi. Bugungi kunda korxonalarda chigitlarini saralash, kalibrlash ishlari mexanik va pnevmatik usullarda olib borilmoqda. CHigitlarning zichlik, uchuvchanlik, yadro to'liqligi, geometrik o'lchamlari, dielektrik ko'rsatkichi kabi parametrlari mavjud. Bu parametrlar o'zaro bog'liq bo'lib, saralashning samaradorligida katta ahamiyatga ega.

Urug'lik chigitlarni saralash usullari va mashinalarini o'rganish asosida ularning to'liq klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu klassifikatsiya asosida har bir saralash usulining va mashinalarining ishlash printsiplari, afzallik va

kamchiliklari asoslangan va tukli chigitlarni solishirma massasi bo'yicha havo yordamida saralashning ustunligani ko'rsatib berilgan. Ba'zi havo yordamida saralash qurilmalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida saralagichlarning balandligi 1 m ga kamaytirildi va mexanik chigit tozalash mashinasini o'ng va chap tomonga o'zgartirish imkoniyatini beruvchi sifatida ishlab chiqildi. Bu esa urug'lik chigit tayyorlash tsexlarida texnologiyani joylashtirish qulayligini oshirganligi tadqiqotlar asosida isbotlangan.


Urug'lik chigitlarni ishchi kamerada havo oqimi ta'siridagi harakat qonuniyatini ifodalovchi matematik tenglamada, ushbu soddalashtirishlar qabul qilindi:

-havo oqimida harakatlanayotgan chigitlar bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi (1-xol);

- havo oqimi ta'sirida harakatlanayotgan m_1 va m_2 massali chigitlar bir-biri bilan mahlum elastik bog'lanishga ega (2-xol);

-ikki holatda ham chigitlar mahlum uchish koeffitsienti - K_{ch} va aerodinamik qarshilik koeffitsientlariga - K_{chk} ga ega bo'lgan moddiy nuqta deb olingan.

CHigitning saralash kamerasidagi harakatini XOY - Dekart koordinatalar sistemasiga nisbatan (1-rasm) tekshiramiz. Kameraga kirib kelayotgan havo oqimi tezligi V_0 bo'lib, kamera ichidagi tezligi V_x , chigitlarni kamera ichidagi harakat qonuniyati $x(t)$, $y(t)$ bo'lsin.



1-rasm. Saralash kamerasida chigitlarni xarakatlanishi va unga ta'sir etuvchi kuchlar sxemasi

Paxtaning urug'lik chigitlari to'liqlik, saralik, yetilmaganlik va tuklilik darajasi bo'yicha bir-biridan farq qilishi mumkin. Saralanayotgan paxta chigitlarining harakatlanish (uchish) jarayonida, berilgan yo'nalish bo'yicha Q_{ix} , Q_{iy} - havoning qarshilik kuchlari va P -og'irlik kuchlari ta'sir etadi.

Paxta chigitlarining harakat tenglamalarini mavjud metodika printsiptiga asosan, yuqorida ta'kidlab o'tilgan kuchlarni hisobga olgan holda tuzib chiqamiz. CHigitlar o'zlarining massalari bilan bir biridan farq qilib, o'zaro elastik bog'lanishga ega emas. Mazkur holatda, paxta chigitlarining harakat qonuniyati quyidagi differentsial tenglamalar sistemasi bilan ifodalanadi:

$$\left. \begin{cases} m_i \ddot{x}_i = c_i (V_x - \dot{x}_i) \\ m_i \ddot{y}_i = - \left(c_{ki} y_i + c_{pi} \dot{y}_i \right) - m_i g \end{cases} \right\} \quad i=1,2,3 \quad (1)$$

Bu yerda : c_i - chigitlarning uchishiga qarshilik koeffitsientlari.


Ushbu holatda m_1 va m_2 massali chigitlar o'zaro elastik bog'lanishga ega bo'lsin.

Mazkur ishda ikki komponentli hamda o'zaro bog'lanishdagi paxta chigitlarining vertikal-gorizontol holatlarini ko'rib o'tamiz.


Mazkur hollar uchun, paxta chigitlarining harakat qonuniyati quyidagi differentsial tenglamalar sistemasida ifodalanadi:

$$\left. \begin{aligned} m_1 \ddot{x}_1 &= v_{x0} - c_{k1} \dot{x}_1 + c_{x0} (x_2 - x_1) \\ m_2 \ddot{x}_2 &= v_{x0} - c_{k2} \dot{x}_2 + c_{x0} (x_1 - x_2) \\ m_1 \ddot{y}_1 &= -m_1 g + c_p \dot{y}_1 + c_k (y_1 - y_2) \\ m_2 \ddot{y}_2 &= -m_2 g + c_p \dot{y}_2 + c_k (y_2 - y_1) \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

Nazariy tahlil uchun ikkita holat uchun differentsial tenglamalar sistemasidan foydalanib, unga tegishli bo'lgan boshlang'ich shartlarda hamda elastiklik hamda aerodinamik qarshilik koeffitsientlarini hisobga olib maxsus dastur asosida qiymatlarni sonli usulda aniqlaymiz.



2 – rasm. Biri biri bilan o'zaro bog'lanmagan va ma'lum bog'lanishga ega bo'lgan chigitlarning harakat qonuniyatlarini ifodalovchi grafik



3-rasm. Chigitlarning elastiklik qarshilik koeffitsientini kamayishi orqali uchib borish masofasining bog'liqligi grafiklari

Paxta chigitlari massasining qiymatiga qarab, texnik chigitlarni saralash kamerasi uzunligi bo'yicha $0,45 < x < 0,60$ m intervallardagi masofaga tushishi ko'rindi.

Amaliyotdan ma'lumki, paxta chigitlari ma'lum tuklilikka ega bo'lganda, ularning uchish koeffitsienti ortib boradi. Ushbu holat saralash jarayonida muhim ahamiyatga egadi.


Birinchi hol uchun chigitlar o'zaro bog'lanishga ega bo'lmasdan, diskret moddiy nuqtalar sifatida qaralganda ularni saralash kamerasidagi harakat

qonuniyati grafiklari turli variatsiyada olindi (2-rasm). 3-rasmda chigitlar massasining qiymatlari bo'yicha, havo tezliklari o'zgarishiga qarab, uchib borish masofalarining qiymatlari o'rtasidagi bog'lanish keltirilgan.

Ikki holatda ham, harakat qonuniyatlari asosan, bir xil bo'lib chigitlarni uchib tushish masofalari c_p -koeffitsienti o'zgarishiga katta bog'liq bo'lib, c_k -ni o'zgarishiga esa kam bog'liq bo'lar ekan. Ya'ni saralash jarayonida chigitlarni tuklilik darajasi muhim omillardan biridir. Bundan tashqari saralash kamerasiga kirib keluvchi havo tezligi ham, chigitlarni saralanishida alohida o'rin tutadi. Yuqoridagi natijalar, gorizontal havo oqimi ta'sirida chigitlarni fraktsiyalanish masofalarini tanlash imkoniyatini beradi. Natijalar asosida saralash kamerasi konstruktsiyasida saralanadigan paxta chigitlarini qabul qiluvchi ikkita kamera parametrlarini o'rnatish imkoniyatini beradi.

Urug'lik chigitlarni saralash texnologik jarayonlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri urug'lik chigitlarni ishonchli saralash hamda fraktsiyalarga samaradorligini oshirishdir. Paxta chigitlarining tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda sara urug'lik tayyorlash uchun texnologik jarayonni to'g'ri ishlatish hamda texnik imkoniyatlardan to'liq foydalanish lozim bo'ladi. Paxtaning urug'lik chigitlarini saralash texnologik jarayonida urug'lar tarkibida turli iflosliklar, yetilmagan va puch chigitlar ma'lum miqdorni tashkil qilishi kuzatilmoqda. Bu yot aralashmalarning saralanayotgan urug'lik chigitlar tarkibida chiqib ketishi albatta urug'lik chigitlarni tayyorlash sifat ko'rsatkichlarini pasaytirib yuboradi.

Mazkur tadqiqotda, paxta chigitini yuqori unumdorlikda saralash imkoniyatiga ega, yangi ikki kamerali saralash qurilmasi taklif qilingan. Yangi qurilmani ishlash usuli gorizontal havo oqimi ta'sirida saralashdir (4-rasm). Saralash kamerasida chigitlarni tashuvchi havo tezligining o'zgarishi hisobiga, aerodinamik parametrlari bo'yicha saralash amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Saralsh qurilmasida urug'lik chigitlarni sifatli saralash ulardan urug'lik navlarini olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. SHu sababli ishlab chiqarishda, urug'lik chigitlarga ishlov berish tsexlarini resurstejamkor va sifatli ish jarayonini bajaradigan gorizontal hamda vertikal aerodinamik saralash qurilmalarini keng qo'llanilmoqda. Tadqiqotda urug'lik chigitlarni ishonchli saralash va fraktsiyaga ajratish jarayonini takomillashtirish maqsadida paxta chigitlarining massa va boshqa xususiyatlariga bog'liq holda gorizontal ikki kamerali chigit saralash qurilmasi taklif qilindi.



4-rasm. Ikki kamerali chigit saralagichning matematik modeli uchun sxemasi

Gorizontal yo'nalishdagi havo oqimi ta'siridagi chigitlarning harakat qonuniyati, vertikal harakatga qaraganda bir muncha murakkabdir. Chunki havo bilan aralashgan donali material (urug'lik paxta chigitlari) bo'lakchalari tebranma ilgari lanma harakatda bo'lib, havo oqimi esa laminar bo'lmasdan, turbolentli

holatda bo'ladi. Ushbu holat o'z navbatida chigitlarning gorizontaal havo oqimidagi harakatini murakkab ekanligini ko'rsatadi. Ishlab chiqilgan ikki kamerali saralagichning vazifasi ish kamerasini hajmiy kengayishi hisobiga chigitlarni fraktsiyalarga, ya'ni urug'lik va texnik chigitlarga ajratish imkoniyatini yaratishdan iborat.

CHigitlar ishchi kameraga 0-0 kesim orqali kirib keladi. Havo tezligi v_0 , yo'naltirgich orqali o'tishda φ burchakka og'adi va XOY koordinatalar sistemasiga nisbatan

$$v_{0x} = v_0 \cos \varphi, v_{0y} = v_0 \sin \varphi$$

tashkil etuvchilarga ajraydi.

Ishchi kamerada, chigitni harakatga keltiruvchi tashqi kuchlar sistemasini quyidagilar:

$G=mg$ - og'irlik kuchi:

$$\begin{cases} P_x = k_x (v_{0x} - \dot{x}(t))^2 \\ P_y = k_y (v_{0y} - \dot{y}(t))^2 \end{cases} \quad (3)$$

(3) da: v_{0x}, v_{0y} - havo oqimi tezliklari

$\dot{x}(t), \dot{y}(t)$ chigitlarning OX, OY- yo'nalishlar bo'yicha absolyut tezliklari.

Mazkur ishda paxta chigitlarining massasi bilan va tuklanganlik darajasi bo'yicha bir-biridan farq qilib, o'zaro bog'lanishga ega emas deb qabul qilamiz. Dinamikaning ikkinchi qonuni bo'yicha Dalamber printsipiga ko'ra chigitlarni ishchi kameraga kirib kelgandan so'ng kameralar bo'yicha harakatining differentsial tenglamalarini tuziladi. CHigitlarning harakat qonuniyatini ifodalovchi differentsial tenglamalar sistemasini tuzib olamiz:

$$\begin{cases} \ddot{x}(t) = k_x (v_{1x} - \dot{x}(t))^2 \\ \ddot{y}(t) = k_y (v_{1y} - \dot{y}(t))^2 \end{cases} \quad (4)$$


Boshlang'ich shartlar

$$\begin{cases} x(t)=0, \dot{x}(t) = 0 \\ y(t)=0, \dot{y}(t) = 0 \end{cases} \quad (5)$$

$$k_x = 0.2; 0.35; 0.45; 0.50; 0.55; 0.6 ; k_y=0.2; 0 \leq \varphi \leq \pi /4;$$

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan differentsial sistemalar tenglamasi noxiziqli bo'lgani uchun sonli usulda maxsus dastur asosida yechildi. CHigitlarni gorizontaal, vertikal yo'nalishda ko'chishlari, nisbiy, absolyut tezliklari vaqtga bog'liq o'zgarishlarini ifodalovchi qonuniyatlarini mos grafiklari olingan (5-7-rasmlar).


5-rasmda saralash kamerasining urug'lik chigitlarga mo'ljallangan qismida chigitlarning fraktsiyalar bo'yicha harakat qonuniyati keltirilgan. Mazkur rasmdagi grafiklar chigitlarning saralash kamerasidagi gorizontaal yo'nalishlari bo'yicha aerodinamik qarshilik koeffitsienti aks ettiradi.



5-rasm. Paxta chigitlari gorizontal yunalishdagi xarakatining vaqt bo'yicha o'zgarish qonuniyati


1-egri chiziq $k_x=0,25$ va $k_y=0,2$, $m_1=0,8$ dagi, 2-egri chiziq $k_x=0,35$ va $k_y=0,2$, $m_2=0,26$ dagi, 3-egri chiziq $k_x=0,45$ va $k_y=0,2$, $m_3=0,20$, 4-egri chiziq $k_x=0,50$ va $k_y=0,2$, $m_4=0,18$ dagi holatda $X(m)$ vaqt $t(s)$ ga bog'liq o'zgarishi qonuni

6-rasmida chigitlarni vertikal yo'nalishda $k_x=0,2, 0,35, 0,45, 0,50$ va $k_y=0,2$ qiymatlaridagi ko'chishi $Y(m)$ va vaqt $t(s)$ ga bog'liqlik qonuniyati keltirilgan.



6-rasm. Paxta chigitlarining vertikal yunalishdagi harakatini vaqt bo'yicha o'zgarish qonuniyati

7-rasmida paxta chigitlarini birinchi kamera bo'yicha uchib tushishi $y(x)$ ni $k_x=0,4, 0,65, 1,0, 1,2$ va $k_y=0,2$ (1-4 egri chiziq) larga bog'liqlik qonuniyati keltirilgan.



7-rasm. Chigitlarni birinchi kamera bo'yicha uchib tushish qonuniyati

Paxta chigitlarining tuksizlik darajasini belgilovchi qarshilik koeffitsienti k_x ning ortib borishi, saralash kamerasi uzunligi bo'yicha uchib tushish masofasini ortishiga olib keladi. Ya'ni qarshilik koeffitsienti $k_x=0,4, 0,65, 0,85$ bo'lgan chigitlar birinchi kamera bo'yicha taqsimlanib, $x(0,66)=0,46$ m; $x(0,85)=0,6$ m; $x(0,85)=0,65$ m masofalarga tushadi. Qarshilik koeffitsienti $k_x \geq 0,8$ bo'lgan chigitlar asosan ikkinchi kamera tomon uchib tushadi. Ya'ni $x(k_x \geq 0,8) \geq 1,2$ m.

Keyingi tadqiqotda chigitlarni saralashdagi aerodinamik holatlar ko'rib chiqildi. CHigitlarning saralash kamerasidan chiqish rejimida havo oqimining tezligi chigitlarning muallaq tezligidan ortib ketsa, chigitlar havo oqimi bilan harakat qila boshlaydi, natijada pnevmotransport rejimi yuzaga keladi. Pnevmostrasport rejimda chigitlarning tezligi W_τ chigitlarni xarakatlantiruvchi havo oqimini tezligi W_n dan kam bo'ladi. Bunday holatda chigitlarni xarakatlantiruvchi havo oqimi harakatlanuvchi chigitlarga nisbatan nisbiy tezlik W_s bilan xarakatlanadi ($W_c = W_n - W_\tau$). Bunday havo oqimida xarakatlanayotgan chigitlarning kontsentratsiyasi $(1-\varepsilon)$ ga teng bo'ladi.

Saralash kamerasida harakatlanuvchi chigitlarning nisbiy tezligini aniqlash uchun (6) tenglamadan foydalanish mumkin:

$$Re_c = \frac{Ar \cdot \varepsilon^{4,75}}{18 + 0,61\sqrt{Ar \cdot \varepsilon^{4,75}}}, \quad (6)$$

Uzatilayotgan chigitlarning saralash kamerasi devoriga ishqalanish natijasida yo'qolgan bosim quyidagi ifoda yordamida topiladi:

$$\Delta P_2 = \lambda_2 \frac{H_1 W_\tau^2}{D} \rho_T (1 - \varepsilon), \quad (7)$$

bu yerda λ_2 – uzatilayotgan chigitlarning saralash kamerasi devoriga ishqalanish koeffitsienti ($\lambda_2 \approx 0,5$).


Pnevmostrasport orqali uzatilayotgan chigitlarning tezligini oshirish paytida yo'qolgan bosim quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$\Delta P_3 = \frac{4G_T W_\tau}{\pi D^2 g}, \quad (8)$$

bu yerda G_T – uzatilayotgan materialning miqdori, kg/s.

CHigitlarning saralash kamerasidagi tezlashgan harakati uchun aerodinamik qarshilik, barqarorlashgan ish rejimida chigitlarning havo bilan aerodinamik kuchlar ta'sirida o'zaro ta'sirlashuvda bo'ladi. Ushbu xolat chigitlar massasiga bog'langan qarshilik kuchi deb atalmish Basse kuchidan tubdan farq qiladi. CHigitlar uchun Reynoldsning kichik sonlari oralig'ida quyidagi bog'liqlik ta'sir etadi:

$$\vec{R} = -3\pi\eta\vec{w}d - 0,5 \frac{\pi d^2}{6} \rho \frac{d\vec{w}}{dt} - 1,5d^2 \rho \sqrt{\pi\nu} \int_0^t \frac{d\vec{w}}{dt} \cdot (t - \tau)^{-0,5} d\tau \quad (9)$$



8 – rasmda chigitni Stoks oqimiga tushishidagi vaqt bo'yicha kuchlarni aerodinamik o'zgarish grafigi keltirilgan. Bunda yana zarrachani (9) ga asosan xarakatini umumiy holat uchun baholash keltirilgan. Ushbu tenglamaning grafiklarini qurishda keltirilgan usulni qo'lladik: ya'ni o'ng tomonida tezlik va tezlanishlar asosida qabul qilingan.

8-rasm. Qulayotgan chigitni aerodinamik kuchini (a – avtomodellik chegarasida; b – Stoks chegarasida): I – inertsiya tashkil etuvchilarini

hisobga olgan holda; II – ushbu tashkil etuvchilarni keltirilgan uslub bilan; III – inertsiya tashkil etuvchilarini aniq hisobi bilan.

$$\frac{dw}{d\tau} \Big|_{\tau = \xi} = (\beta + 1)^2 \frac{e^{\tau(\beta+1)}}{[e^{\tau(\beta+1)} + \beta]^2} \Big|_{\tau = \xi} = n^2 \frac{e^{n\xi}}{(e^{n\xi} + n - 1)^2}; n = \beta + 1 \quad (10)$$

va u holda

$$J(\tau) \equiv \int_0^\tau \frac{dw}{dx} \Big|_{\tau = \xi} \cdot \frac{d\xi}{\sqrt{\tau - \xi}} 2\pi \sqrt{n \int_0^{\sqrt{n\tau}} \frac{e^{n\xi} e^{-x^2}}{[e^{n\xi} e^{-x^2} + n - 1]^2} dx} \quad (11)$$

Bu yerda xususiy holat: Stoks chegarasida:

$$J(\tau) = 2e^{-\tau} \int_0^{\sqrt{\beta\tau}} e^{x^2} dx = 2W(\sqrt{\tau}) \quad (12)$$

Avtomodellik chegarasida:

$$J(\tau) = 4\sqrt{2} \int_0^{\sqrt{2\tau}} \frac{e^{2\tau} \cdot e^{-x^2} dx}{[1 + e^{2\tau} \cdot e^{-x^2}]^2} \approx 4\sqrt{2} [W(\sqrt{2\tau}) - \sqrt{2} [W(2\sqrt{\tau})]] \quad (13)$$

Mazkur tadqiqotlardan olingan natijalar taxlili quyidagicha xulosa qilishni mumkinligini ko'rsatdi:

-keltirilgan uslub chigitlarni barcha bosqichlarda tushish jarayonini qoniqarli bayon etadi;


-inertsiyani tashkil etuvchilari faqat boshlang'ich momentda qoniqarli qiymatga ega bo'ladi, chigitlarni qo'zg'alish vaqtida, ya'ni qulash yo'lining kichik intervalida, qarshilik kuchi nisbatan kichik bo'ladi. Oxirgi holat chigitlar oqimi aerodinamikasini sonli bayon etishda aerodinamik kuchlarni inertsiya tashkil etuvchilarini hisobga olmaslikka imkon beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi **“Urug'lik chigitlarni saralash jarayonini takomillashtirish bo'yicha tajriba ishlari va maqbul parametrlarni aniqlash”** bobida qurilmaning asosiy ishchi organlarini tanlangan hamda amaliy tadqiqotlar asosida uning samarali ishlashi aniqlangan.

Yangi urug'lik chigitlarni saralash qurilmasida chigitni havo orqali so'rib olib uni tarkibidagi iflosliklar, puch chigitlarni xamda texnik chigitlarni fraktsiyaga ajratib olish uchun ikkita bunker o'rnatilgan, bundan tashqari chigitni fraktsiyaga ajratib olish uchun ikkita bunker o'rtasiga haraktlanuvchi chigit burgichi o'rnatilgan bo'ladi.

Qurilma quyidagicha ishlaydi: Paxta tozalash korxonalarining urug'lik chigitlarni qayta ishlash texnologik jarayonida yig'uvchi konveyer 1 ga kelgan chigitlar so'ruvchi quvur 2 orqali o'tib, takomillashtirilgan chigit saralagichga keladi va chigit to'sqichi 3 ga borib uriladi hamda urug'lik chigitlar uchun mo'ljallangan ajratish kamerasi 4 ga tushadi. Undan o'tgan massa (asosan puch, singan chigitlar va iflosliklar) haraktlanuvchi burgich 5 ga urilib, burgich yo'nalishi bo'yicha texnik chigitlar kamerasi 6 ga tushadi. Haraktlanuvchi burgich qiyalik burchagi chigitning tarkibidagi iflosligiga va holatiga qarab o'zgartirib turiladi. Fraktsiyaga ajralgan chigitlar vakuum-klapanlar 9 orqali keyingi jarayonga yuboriladi. Urug'lik chigitlar tozalash va dorilash jarayonlaridan o'tkazilsa, texnik chigitlar esa chigit omborlariga yuboriladi. Mazkur qurilmada

birinchi kamera hisobga olinsa, chigitlar massasida 3 ta fraktsiya, og'ir jismlar, urug'lik va texnik chigitlar ajratish imkoniyati mavjud.



9-rasm. Takomillashtirilgan urug'lik chigit saralash qurilmasining texnologik sxemasi

1-yig'uvchi konveyer, 2-chigitni so'ruvchi quvur, 3-chigit to'sqichlar, 4-ajratish kamerasi, 5-harakatlanuvchi burgich, 6-bunkerlar, 7-havoni so'ruvchi quvur, 8-chang havo quvuri, 9-vakuum-klapanlar

